



LEGAL BASIS OF THE POLICY OF REPRESSION IMPLEMENTED BY THE SOVIET AUTHORITY IN THE 1930-1950

Mirzohid Abdujabborov

Intern-teacher at Namangan State Pedagogical Institute

E-mail: mirzokhid5500@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: GULAG, SredAzLag, “The Great Massacre”, “Zvezda and Leningrad”, “Pan-Turkism”, “Bourgeois nationalism”.

Received: 10.11.25

Accepted: 11.11.25

Published: 12.11.25

Abstract: Since 1930, the policy of repression has started in our country. This policy continued until the 1950s. Especially 1937-1938 was considered to be the period when the processes of great extermination intensified. During Stalin's reign, the policy of repression reached its peak. Many innocent people suffered on the orders of Stalin. This political and bloody process attracted representatives of all sectors. In addition, some of the writers and poets were exiled to other countries (Belarus, Siberia, the Far East, and remote regions of Ukraine) under the label of "traitor to the motherland", and some were brutally shot. Their families were separated from the people. They began to be deported to remote areas of Belarus, Siberia, the Far East and Ukraine.

1930-1950-YILLARDA SOVET HOKIMIYATI AMALGA OSHIRGAN QATAG‘ON SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI

Mirzohid Abdujabborov

Namangan davlat pedagogika instituti stajor-o‘qituvchisi

E-Mail: mirzokhid5500@gmail.com

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlari: GULAG, SredAzLag, “Katta qirg‘in”, “Zvezda” va “Leningrad”, “panturkizm”, “Burjua millatchilik”.

Annotasiya: Yurtimizda 1930-yildan boshlab qatag‘onlik siyosati boshlangan. Bu siyosat 1950-yillarga qadar davom etgan. Ayniqsa 1937-1938-yillarda katta qirg‘in jarayonlari avj olgan davr hisoblangan. Stalin

davrida ham qatag'onchilik siyosati o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan. Stalin topshirig'i bilan ko'p begunoh insonlar jabr ko'rgan. Bu siyosiy va qonli jarayon barcha soha vakillarini o'z domiga tortgan. Undan tashqari yozuvchilar, shoirlarni ham "vatan xoini" degan tamg'a bilan ba'zilarini o'zga yurtlarga (Belorussiya, Sibir, Uzoq Sharq va Ukrainaning chekka hududlariga) surgun qilina boshlangan, ba'zilarini esa beayov otib tashlangan. Ularning oilalarini ham xalqdan ajratib qo'yilgan. Belorussiya, Sibir, Uzoq sharq va Ukrainaning chekka hududlariga surgun qilina boshlangan.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА ПОЛИТИКИ РЕПРЕССИЙ, ОСУЩЕСТВЛЯЕМОЙ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТЬЮ В 1930-1950 ГГ

Мирзохид Абдужабборов

Стажёр-преподаватель Наманганского государственного педагогического института

E-mail: mirzokhid5500@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ГУЛАГ, СредАзЛag, «Великая резня», «Звезда» и «Ленинград», «пантюркизм», «буржуазный национализм».

Аннотация: С 1930 года в нашей стране началась политика репрессий. Эта политика продолжалась до 1950-х годов. Тем более 1937-1938 годы считались периодом усиления процессов массового истребления. В годы правления Сталина политика репрессий достигла своего апогея. По приказу Сталина пострадало много невинных людей. Этот политический и кровавый процесс привлек представителей всех слоев общества. Кроме того, часть писателей и поэтов была сослана в другие страны (Белоруссия, Сибирь, на Дальний Восток и в отдаленные районы Украины) под ярлыком «изменников Родины», а некоторые были жестоко расстреляны. Их семьи были отделены от народа. Их начали депортировать в отдаленные районы Белоруссии, Сибири, Дальнего Востока и Украины.

Kirish. O'zbek xalqi boshiga mislsiz darajada katta fojialarni keltirgan, yuz minglab begunoh vatandoshlarimizning yostig'ini quritgan, XX asrning 30-yillarida avj oldirilgan sovet hokimiyatining O'rta Osiyodagi qatag'onchilik siyosati O'zbekistonning sovet davri tarixida

o'ziga xos o'rin tutadi. Bu davrdagi ommaviy qatag'onlarda xalqning ilg'or qatlami bo'lgan ziyolilar totalitar tuzum jazo organlarining yaqqol nishonida bo'lgan. 1930-yillar boshidanoq qishloq aholisining katta qismi uy-joyidan, mol-mulki, ot-ulovidan, azaliy makonidan, yaqinlaridan, mahalla-ko'yidan, qavmu-qarindoshlaridan, qisqacha aytganda butun borlig'idan mahrum qilinib, "quloq" tamg'asi bilan qamoqqa olingan, uzoq begona yurtlarga surgun qilingan. Surgun qilinganlar chekka o'lkalarda qullarcha hayot kechirgan va mislsiz azob-uqubatlarga solingan. Ittifoqning Sibir, Uzoq Sharq, Ural, Qozog'iston hududlariga, shuningdek, O'rta Osiyoning o'zidagi GULAG tizimidagi lagerlarga yuborilganlar juda og'ir ishlarga jalb etilgan, mahbuslarning ko'pchiligi jazo lagerlaridagi og'ir mehnat, sovuq, ochlik va turli kasalliklardan bevaqt hayotdan ko'z yumganlar.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** SSSR Xalq Komissarlari Soveti 1929-yil 11-iyulda "Jinoyatchi mahbuslar mehnatidan foydalanish to'g'risida" qaror qabul qiladi [1]. Bu qarorga ko'ra, sovet sudlov idoralari tomonidan uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni Ittifoqning chekka mintaqalarida tashkil etiladigan mehnat-tuzatuv lagerlaridagi majburiy mehnatga keng safarbar etish ko'zda tutilgan edi. Bu kabi majburiy mehnat kimsasiz, sharoiti nihoyatda og'ir bo'lgan Uzoq Sharq, Sibirning chekka hududlaridagi ma'dan konlarida amalga oshirilishi mo'ljallangan. Bu mehnat-tuzatuv lagerlarida tartib-qoidalar, majburiyatlar nihoyatda og'ir bo'lib, bu makonga yuborilgan mahbuslar uzoq yashab qolmas edi. Yuqoridagi qaror 1930-1950-yillarda sovet davlatiga mehnat tuzatuv lagerlaridagi millionlab mahbuslar mehnatidan foydalanishida huquqiy asos vazifasini bajardi.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** 1930-1950-yillar oralig'ida mehnat-tuzatuv lagerlari SSSRning barcha respublikalari va mintaqalarida tashkil etilgan. Bu lagerlar tarkibida qoidaga ko'ra, bir qancha lager bo'limlari, punktlari va boshqa ancha mayda qismlar bo'lgan. Lagerlar bosh boshqarmasi (GULAG) mavjudligi davrida SSSRda bunday qamoqxona joylari 30 mingdan ortiq bo'lgan [2]. SSSR NKVD (Ichki ishlar Xalq komissarligi) GULAGining kadrlar bo'yicha boshlig'i o'rinbosari Saxarovning 1940-yil 10-oktyabrdagi hisobotida 65 ta ana shunday yirik lagerlar tizimi mavjudligi qayd etilgan. O'zbekiston SSR hududida 1941-1942-yillarda SredAzLag (O'rta Osiyo mehnat-tuzatuv lagerlari boshqarmasi) tasarrufidagi mehnat posyolkalarida 283 kishi "sobiq bosmachi" sifatida, 279 kishi esa "sovetlarga qarshi aksilinqilobchi" sifatida NKVDning operativ ro'yxatiga olingan [2]. Ular qatag'on domiga tortilganlar. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1942-yil noyabr oyidagi maxfiy ko'rsatmasi bilan mehnat posyolkalaridan qochganlarni xalq sudlari orqali emas, balki NKVDning maxsus kengashi orqali jinoiy javobgarlikka tortish joriy etildi. Posyolkalardan qochib ketishga moyilligi bo'lgan shaxslarga nisbatan oldini olish operativ-profilaktik tadbirlar ko'rish yuzasidan ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Maxbuslarni qochishini oldini olish maqsadida posyolka

komendaturalari tomonidan xavfsizlik choralari kuchaytirilgan. Shundan so'ng hisobda turgan barcha mehnat ko'chkindilarini qochish hollari ancha kamayadi va ushlab kelinganlar soni esa ko'paygan [4]. 1942-yilning birinchi yarmida mehnat posyolkalaridan 35 ta mehnat ko'chkindisi qochib ketgan, 62 kishi esa ushlab kelingan. Ko'pchilik qochoqlar qochishga uringan paytlarda komendantlar tomonidan temir yo'llari va oddiy yo'llarda tashkil qilingan tunggi pistirmalarda ushlab qolingan. Qochoqlarning bir qismi komendatura xodimlari tomonidan operativ yo'l bilan yetib borgan manzillarini, ular turgan joylarni aniqlash yo'li bilan ushlangan va qochganligi uchun oila boshliqlari sud orqali jinoiy javobgarlikka tortilgan. Oila a'zolari esa yana qaytadan mehnat posyolkalariga olib kelib, joylashtirilgan. Masalan, 1942-yilning ikkinchi choragida 6 kishi qamoqqa olinib, xalq sudi tomonidan qochganligi uchun jazoga hukm qilingan. O'zbekiston mehnat posyolkalari komendaturalari xodimlarining mehnat ko'chkindilaridan bo'lgan qochoqlarga qarshi kurashdagi jonbozliklari GULAG rahbariyatining maqtovlariga sazovor bo'lgan. Shunday qilib, yoppasiga kollektivlashtirish davrida "quloq" qilinib, O'zbekistonning ichki hududlariga surgun qilinganlarning ma'lum bir qismi urush yillarida maxsus posyolkalarda qaytadan qatag'on qilingan, aksariyati otuvga hukm qilingan, ma'lum bir qismi uzoq o'lkalardagi mehnat tuzatuv lagerlariga yuborilgan. Bir so'z bilan aytganda, beayb jazolangan kishilar yana qaytadan qatag'on tig'idan o'tkazilgan.

1942-yil 1-yanvarda SSSRdagi turli jazo lagerlarida qamoq jazosini o'tayotgan mahbuslar orasida o'zbeklar 26 ming 907 kishini (barcha mahbuslarning 2 foizi) tashkil etgan bo'lsada, o'zbeklar O'rta Osiyo bo'yicha siyosiy qatag'onga uchraganlar orasida birinchi o'rinda turganlar [5]. O'zbeklar siyosiy belgilar bo'yicha boshqa millat vakillariga qaraganda ancha ko'proq qatag'on girdobiga tortilgan. Respublikada siyosiy qatag'on qo'shni respublikalarga nisbatan ancha og'ir va dahshatli kechgan. Mehnat-tuzatuv lagerlari va koloniyalarida O'zbekiston SSR bo'yicha 1959-yil 1-yanvar holatida 14 ming 479 nafar, 1959-yil 1-sentabr holatida 17 ming 294 nafar, 1960-yil 1-yanvar holatida esa 10 ming 258 kishi qamoq jazosini o'tagan.

Sovet tuzumining bu yillardagi qatag'on siyosati jahon tarixshunosligida "Katta qirg'in" nomi bilan ataladi va bu bejizga bunday nomlanmagan. Bu mudhish jarayonda O'zbekiston xalqi o'z boshidan mislsiz azob-uqubatlarni kechirdi. 1930-yillardagi qatag'onlar asosan partiya, sovet, xo'jalik va harbiy kadrlarga nisbatan qaratilgan bo'lsa-da, bu jarayonda mipglab oddiy fuqarolar – dehqonlar, ruhoniylar, o'zbek milliy ziyolilari ham jazoga tortilganlar. Fashizmga qarshi urush tamom bo'lgandan keyin, oradan ko'p o'tmay barcha respublikalar qatori O'zbekiston bo'ylab yana bir yalpi terror to'liqini boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi qatag'onlar asosan, madaniyat va ilm fan arboblari qatag'oniga qaratildi. Ittifoq kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi urush yillarida nemis-fashistlar bosib olgan yerlarda kishilar ongiga fashizm mafkurasining ta'siri bo'lganligini va buning oqibatida matbuot, san'at va adabiyotda g'oyasizlik, siyosatdan yiroq

turish, hayotiy haqiqatni buzib ko'rsatish, realistik an'analardan chetlashish, umidsizlik, kelajakka ishonchsizlik paydo bo'lganligini ro'kach qilib, 1946-yilning avgustida "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari haqida"gi, 1948-yilda "Ulug' do'stlik" operasi haqida"gi nohaq qarorlar qabul qiladi [6]. Ularda sovet adabiyoti va san'atining bir qancha talantli xodimlarining ijodiga nohaq va asossiz ayblar qo'yildi. Partiyaning adabiyot va san'at masalalariga oid qarorlarini amalga oshirish vaqtida matbuotda va ijodiy tashkilotlarda ba'zan xatolarga va yo'l qo'yildi, badiiy muammolarni ijodiy muhokama qilish ba'zan ma'muriyatchilik bilan almashtirildi, adabiyot, musiqa va kino asarlariga baho berishda ayrim hollarda ba'zi asarlar asossiz tanqid qilinsa, ba'zilari asossiz maqtaldi. Bu qarorlar o'sha davrdagi mamlakatning bosh mafkurachisi A.A. Jdanovning tashabbusi va ko'rsatmasi bilan qabul qilingan edi. Mazkur qarorlarning bajarilishi butun mafkurani, shu jumladan ijodiyotni, adabiyot va san'atdagi demokratik taraqqiyotni ko'p yillar davomida bo'g'ib qo'ydi. Qarorlarning salbiy ta'siridan O'zbekiston va uning partiya tashkiloti ham chetda qolmadi. 1940-yillarning oxiri, 1950-yillarning boshlaridagi O'zKompartiya Markazqo'mining barcha byuro yig'ilishlarida, 1952-yilda bo'lib o'tgan Markazqo'mning X Plenumida millatchilikka qarshi niqob ostida o'zbek xalqining madaniy merosiga, badiiy va ilmiy ziyolilarga qarshi kurash boshlandi. Respublikaning ko'pgina yozuvchilari, olimlari, partiya va davlat arboblari millatchilikda ayblandilar. "Ayrim o'zbek yozuvchilarining ijodida, - deb ko'rsatilgan edi O'ZKP(b) MQning 1949-yil 25-iyundagi buyruq qarorida, - millatchilik, milliy chegaralanish, feodal o'tmishni ko'klarga ko'tarish va eski feodal madaniyat oldida qullarcha ta'zim qilish hollari sezilib turadi" [7]. Qarorlarda A. Qahhor, G'. G'ulom, A. Qayumov, M. Shayxzoda, Oybek, Mirtemir, M. Boboyev, U. Rashidov, Shukrullo, S. Ahmadlarning ijodi qattiq tanqid ostiga olindi. Ayniqsa, o'z sahifalarida o'quvchilarni tartibsizlikka undovchi maqola va badiiy asarlar berib borganligida, kosmopolitizm (siyosatdan yiroqlashishda) ayblangan Oybek rahbarligida chiqib turgan "Sharq yulduzi" jurnali keskin tanqid ostiga olingan edi. 1951-yilning 8-aprelidagi O'ZKP(b) MQ byurosida "O'zbekiston SSRda musiqa san'atining ahvoli va uni yanada rivojlantirish choralari to'g'risida" qabul qilingan qarorda musiqa san'ati hayotdan yiroqlashishda, o'zbek xalqini yangi jamiyat qurish ruhida tarbiyalashga xizmat qilmayotganlikda ayblandi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida partiyaning yakka hukmronligi kuchayib bordi. Respublikaning partiya organlari Markazning yo'l-yo'riqlariga tayanib, dunyoqarashi va ijodi partiya mafkurasiga to'g'ri kelmaydigan ijodiy ziyolilar vakillariga hujum qila boshladilar. Go'yoki ularning asarlarida millatchilik g'oyalari mavjudligi, o'rta asr tarixi, o'sha davrda o'tgan tarixiy shaxslarning roli ideallashtirilgan, degan ayblar qo'yildi. Oybek, Abdulla Qahhor, Mamarasul Boboyev, Mirtemir, Shayxzoda kabi o'zbek yozuvchilari badnom qilindi. Shu bilan birga "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra", "Alpomish", "Gulandom" va boshqa afsonaviy folklor syujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama

spektakllari ijodkorlari ham “zararli” g‘oyalarni targ‘ib qilishda ayblandilar. Qo‘shirnoq ichida millatchilarga kosmopolitlarga, panturkchilarga qarshi matbuotda keng kampaniya boshlandi. 1951-yilning 10-avgustida respublika matbuotida Turob To‘la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, A. Bobojonov, S. Abdullayev, Xabibiylar ijodini keskin qoralagan “Ayrim shoirlar ijodida mafkuraviy buzilishlar” nomli maqola bosilib chiqdi. 1951-yilning 24-avgustida e‘lon qilingan maqolada Oybek, Xodi Zaripov, Xomil Yoqubov, Izzat Sulton kabi ilmiy xodimlar “mafkuraviy xato va buzilishda” ayblandilar. Maqsud Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, G‘ulom Alimov va yana bir qancha shoir, yozuvchilar 1951-yilda “sovet tuzumiga qarshi millatchilikda” ayblanib, qamoqqa olindilar va 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. Respublikada 1950-yillar qatag‘onlarini boshlab berishda hukmron partiya markazqo‘mi qarorlarini O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tadbiiq etishda O‘zK partiya markazqo‘mining 1952-yil 21-22-fevralda bo‘lib o‘tgan X plenumi va unda qabul qilingan qarorlar katta rol o‘ynadi. Plenumda tinglangan va muhokama etilgan O‘zKP(b) MK birinchi kotibi A. Niyozovning “Respublikada ideologiya ishlarining ahvoli va uni yaxshilash choralari haqida”gi ma‘ruzasida shunday ta’kidlangan edi: “Keyingi ikki yilda respublikada adabiyot xodimlari orasidan sovet tuzumiga qarshi, millatchilik kayfiyatida bo‘lgan guruh ochib tashlandi. Bu guruh sovet davlatiga qarshi dushmanlik ishini olib bordi. Bu guruh a‘zolari oldin ayblangan millatchilar bilan yaqin aloqada bo‘lganlar, ular mafkuraviy buzuvchi mazmundagi she‘rlar yozib, millatchilarning sovet tuzumiga qarshi asarlarini ideallashtirib, ommaga tarqatganlar”.

Ma‘ruzada To‘rob To‘la “Qo‘pol millatchilik xatolari”ga yo‘l qo‘yganlikda, Temir Fattoh “Milliy mahdudlik”da, Oybek “Jiddiy mafkuraviy aynish”da, Maqsud Shayxzoda “O‘tmishni ideallashtirishda, tarixiy shaxslarni noto‘g‘ri tasvirlash”da, ularning hammalari birgalikda “Burjua-millatchilik qarashlarining namoyon bo‘lishi”da ayblandi [8].

Plenumda jamiyatshunos olimlarga ham nohaq ayblar qo‘yildi. Jumladan faylasuf Vohid Zoxidov “burjua millatchisi”, tarixchi Abdusamad Boboxo‘jayev “panturkizmni targ‘ib etuvchi”, iqtisodchi Alim Aminov esa “burjua millatchilari bilan aloqa qiluvchi”lar sifatida ayblandilar. 1950-yillarning boshlarida yana 60 nafarga yaqin eng ko‘zga ko‘ringan iste‘dodli olimlar va yozuvchilar, san‘at arboblarning ro‘yxati tuzilib, ularni ham millatchi, aksilinqilobchi va hokazo tamg‘alar yopishtirilib, jinoiy jazoga tortishga urindilar.

O‘zbekiston gumanitar va ijtimoiy fanlarining ko‘pgina arboblari ham qoralandi. O‘zKP(b) MK byurosi 1950-yil 1-sentyabrda “O‘zbekiston SSR FAning ishi to‘g‘risi”dagi masala ko‘rib chiqib, bu masala yuzasidan qabul qilgan qarorida Respublika Fanlar Akademiyasining gumanitar fanlar bo‘limi va uning institutlari “o‘z ishlarini VKP(b) MKning masalalariga doir qarorlariga muvofiq ravishda qayta ko‘rmadilar, bu institutlarga siyosiy ishonchga sazovor bo‘lmagan va

burjua ob'ektivizmi hamda kosmopolitizm g'oyasini tashib yuradigan kishilar joylashib olganlar" deya ko'rsatib o'tildi [9].

Bu ofatlardan qutilish juda qimmatga tushdi. Lekin adolat, garchi tezda bo'lmasada, har holda tiklangan edi. O'zbekiston ilm-fani, madaniyatining asossiz qatag'on qilingan ko'pgina arboblari 1956-yilda batamom oqlandilar. Jumladan, turli jazo lagerlarida nohaqdan azob chekayotgan yozuvchi-shoirlardan M.Shayxzoda, Shuhrat, Shukurullo, S.Ahmad, V.Sa'dulla va boshqalar oqlanib, ozodlikka chiqdilar. Yo'qotish ro'yxatiga qo'shilgan, xalqimizning faxri bo'lgan 60 nafar ziyolilarimiz ustidan tayyorlangan hukm bekor qilindi.

Zulmga qarshi adolat o'rnatilgan bo'lsada, Stalin shaxsiga sig'inish vujudga keltirgan totalitar tuzum bedodligi va beshafqatligi xalqimizning orzu umidlarini chilparchin qildi, suveren huquqlari va milliy mustaqilligini zavol toptirdi. O'zbekistonning haq-huquqlari, ixtiyori cheklanib, Markaz deb atalmish zo'ravon hokimiyat iskanjasiga tushib qoldi. O'zbekiston xalqining til-zaboni kesildi, alifbosi o'zgartirildi, o'tmishi, tarixi ko'zdan yiroqlashtirildi. Stalin shaxsiga sig'inish tufayli ro'y bergan qatag'onlik siyosati butun mamlakat miqyosida 50 milliondan ortiq kishini o'z domiga tortdi.

- **Tahlil va natijalar.** XX asrning 40-yillar oxiri – 50-yillari boshida Stalin davridagi ommaviy qatag'onlar natijasida SSSR bo'yicha 3 mln. 778 ming 234 kishi hibsga olindi, ulardan 786 ming 098 kishi otib tashlangan. 1937-1953-yillar qatag'onlari davrida O'zbekistonda NKVD "uchligi" tomonidan 100 mingga yaqin kishi qamoqqa olinib, ulardan o'n besh ming nafari otib tashlandi [10]. Bu dahshatli holatni ta'riflab, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov Toshkentdagi "Shahidlar hotirasi" yodgorlik majmuasining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida: "Zulm va zo'ravonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o'zligini, millatini, qadr-qimmatini teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, xalqni uyg'otishga, xalqni boshqarishga qodir bo'lgan, ma'rifat va ma'naviyat yo'lida fidoyilik ko'rsatgan barcha aql zakovat sohiblarining qancha-qanchalari jismonan yo'q qilinganligi" haqida keng to'xtalib o'tdi. Asossiz qatag'on qilinganlarni oqlash Stalin vafotidan keyingiga boshlandi. Natijada O'zbekiston bo'yicha qatag'on qilingan, hayot va halok bo'lganlardan 40 mingga yaqini oqlandi.

- **Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, biz qaysi tarixiy tadqiqot usullaridan foydalanmaylik, uning negizida, albatta, bir narsa yotadi, u ham bo'lsa tarixni to'g'ri va haqqoniy yoritib berishdir. Ayniqsa, hali aniqlanmagan, qatag'on girdobiga uchragan yurtdoshlarimizni nomini abadiylashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir. 2000-yil 31-avgustidan e'tiboran shu sana Respublikamizda "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" sifatida nishonlanib kelinmoqda. Vatan fidoyilarining hayoti va merosini o'rganish, xotirasini abadiylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Afsuski, shu paytgacha qatag'on qurbonlarining

to'liq ro'yxati shakllantirilmagan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktyabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilindi. Farmoyishda sovet davrida nohaq qatag'on qilingan yurtdoshlarimizni tuman, shahar va viloyatlar kesimida nomma-nom aniqlash vazifasi qo'yildi. Shuningdek, "Inson-aziz, xotira-muqaddas" degan g'oya asosida barcha tuman, shahar va mahallalarda aholi, ayniqsa, yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota-bobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ko'rsatgan jasorati va ibratli faoliyatlarini targ'ib etishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini tashkil etish ham asosiy vazifalardan etib belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лубянка. ВЧК - ОГПУ - НКВД - НКГБ - МГБ - МВД - КГБ 1917 – 1960. Справочник. Составители: А.И. Кокурин, Н.В. Петров. – Москва: МФД, 1997. – С. 64-65.
2. Ҳасанов Б. В. "Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы 1917-начало 50-годов". – Ташкент - 2000, стр. 7, 65, 70-80, 119-131, 190-191
3. ГУЛАГ (Главное управление лагерей) 1918-1960. Составители: А.И.Кокурин и Н.В
4. Зикруллаев М. Ўзбекистонда совет давлатининг қатағон сиёсати: келиб чиқиш сабаблари ва фожиаи оқибатлари (Илмий мақолалар тўплами). Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 156.
5. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб - Т.: Шарқ, 2007 10-16-бетлар
6. <https://azkurs.org/mavzu-40-50-yillardagi-qatagonliklar-uning-80-yillar-dagi-yangi.html> [Murojaat qilingan sana: 14.08.2023]
7. <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/444-qatagonlik-dawrlari.html> [Murojaat qilingan sana: 18.08.2023]
8. <https://milliycha.uz/mustabid-sovet-tuzumining-ozbekistondagi-qatagonlik-siyosati-va-uning-oqibatlar/> [Murojaat qilingan sana: 14.08.2023]
9. <http://www.genderi.org/ishlari-vazirligi.html?page=56> [Murojaat qilingan sana: 14.08.2023]
10. Шамсутдинов Р. Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожиаи оқибатлари -Тошкент: Шарқ, 2001. - Б. 66.